


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

TARIX

Tuyev Fazliddin Erkinovich-

(DSc) mustaqil izlanuvchi

Buxoro davlat Pedagogika institute dotsenti

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING
KIRITILISHI: 2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362923>**ANNOTATSİYA**

Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasi xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalarning yo'lga qo'yilganligi ko'rsatilib, bunda Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlariga xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda investisiyalarning jalb qilinganligi va shu asosida mintaqalarda qo'shma korxonalar tashkil qilinib, eksport salohiyatining oshganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Navoiy, Samarqand va Buxoro, Tashqi savdo, investitsiya, milliard so'm, AQSh dollari, Rossiya, Armaniston, Shveysiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Belgiya, Pokiston, Xitoy.

Туев Фазлиддин Эркинович -

(DSc) самостоятельный соискатель доцент Бухарского государственного педагогического института

**ПРИТОК ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕСПУБЛИКУ УЗБЕКИСТАН:
2003-2008 ГГ. НА ПРИМЕРЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА****АННОТАЦИЯ**

В данной статье указывается на налаживание внешних связей Республики Узбекистан с зарубежными государствами, приводится информация о привлечении инвестиций в Навоийскую, Самаркандскую и Бухарскую области в сотрудничестве с зарубежными государствами, на основе чего в регионах создаются совместные предприятия и наращивается экспортный потенциал.

Ключевые слова: Узбекистан, Навои, Самарканд и Бухара, внешняя торговля, инвестиции, миллиард сумов, доллар США, Россия, Армения, Швейцария, Италия, Великобритания, США, Бельгия, Пакистан, Китай.

Tuyev Fazliddin Erkinovich-(DSc) Independent Researcher Associate Professor
of the Bukhara State Pedagogical Institute

FLOW OF FOREIGN INVESTMENT TO THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: 2003-2008 ON THE EXAMPLE OF ZARAFSHAN OASIS

ANNOTATION

this article provides information on the establishment of Foreign Relations of the Republic of Uzbekistan with foreign countries, the involvement of investments in Navoi, Samarkand and Bukhara regions in cooperation with foreign countries, on the basis of which joint ventures are established in the regions and export potential is increased.

Keywords: Uzbekistan, Navoi, Samarkand and Bukhara, Foreign Trade, Investment, billion rubles, US dollars, Russia, Armenia, Switzerland, Italy, United Kingdom, USA, Belgium, Pakistan, China.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

O'zbekiston respublikasiga investitsiyalar jalb qilinishi boshlanib, 2003-2008 yillar mobaynida Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlariga uzoq va yaqin xorijiy davlatlar sarmoyalarining kiritilishi natijasida viloyatlarda ijtimoiy ahvol bir qadar yaxshilangan. Investitsiyalar oqimining jadallashishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog'liq.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

O'zbekistonning xalqaro aloqalari tarixiga bag'ishlab yozilgan ishlarga N.To'xlijev, A.Toqсанov, A.Rasulov va boshqalarning kitoblarini kiritish mumkin. Milliy va mahalliy davlat arxivi materiallari, davriy matbuot hamda ilmiy-ommabop nashrlardan foydalangan holda, tanlangan muammo mohiyatini ochib beradi. 2003-2008-yillar chet el investitsiyalarining Zarafshon vohasiga kiritilishini o'rganish jarayonida iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, dinamikada o'rganish, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Samarqand viloyatining yalpi hududiy ichki mahsuloti 106,9 foizga, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 102,7 foizga, qishloq xo'jaligida 110 foizga, qurilishda 103,8 foizga, boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida esa 100,2 foizga o'sgan[1]. Asosiy sarmoyalarni uzoq va yaqin xorijiy davlatlar hisobidan kiritish 7,9 foizga o'sdi, aholining iqtisodiy daromadlari 45,5 foizga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilayotgan kreditlar 20,4 foizga o'sgan. Tashqi savdo aylanmasi 4,9 foizga, eksport 7,5 foizga ko'tarilgan. Tashqi savdo 4 million AQSh dollaridan ortiq miqdorda ijobiy savdoga etishgan. Samarqand iqtisodiyotiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya siyosatining amalga oshirilishi natijasida 2003-yilda viloyat iqtisodiyotiga 108,7 mlrd. so'mni tashkil etdi, shundan chet el investitsiyalari va kreditlari 18,7 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu esa, 2002-yilga nisbatan 45,3 mlrd. so'mga oshganligini ko'rsatadi[2].

2004-2007 yillar oralig'ida Samarqand viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari bo'yicha xorijiy davlatlarning investitsiyalari 2004-yil 21379,4 mln. so'm bo'lib, 2005-yil 7845,1 mln. so'mga kamaygan, 2006-yilga kelib 2004-yilga nisbatan 13114,7 mln. so'mga oshib, 34494,1 mln. so'mna tashkil qilgan. 2006-yili kiritilgan xorijiy investitsiyalarning 5611,8 mln. so'mi sanoatga, 81,6 mln. so'mi qishloq xo'jaligiga, 12345,2 mln. so'mi transportga, 4413,2 mln. so'mi aloqa sohasiga ajratilgan bo'lsa qolgan 12042,3 mln. so'mi turli sohalarni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan[3]. 2005-yilda viloyatda 26 ta loyiha bo'yicha jami: 37 million 600 ming AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Shu dasturga muvofiq 16 ta loyiha bo'yicha jami: 7 million 200 ming AQSh dollari[4] miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilinib viloyatdagi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi.

Buxoroda bu ko'rsatkichlar quyidagicha: Mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan sarmoyalar jami: 2003-yil davomida 88215,7 mln. so'm shundan davlat ulushi 28080,7 mln. so'm, nodavlat tashkilotlar esa 60135,0 mln. so'mni tashkil etgan[5]. Tashqi iqtisodiy aloqalar asosida Buxoro viloyatida chet el sarmoyalari kiritilgan qo'shma korxonalar 2003-yilda 53 ta bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 16317,1 mln. so'mni tashkil qilgan. Eksport 15822,5 ming AQSh dollarini, import 6909,8 ming AQSh dollarini tashkil etgan[6]. Tashqi iqtisodiy aloqalarda MDHning ayrim davlatlari bilan eksport va import aloqalari taraqqiy topgan. 2003-yildagi eksportni

89 foizi Rossiyaga 4,6 foiz Armanistonga eksport qilingan. Uzoq xorijiy davlatlardan Shveysiyaga 39,9 foiz, Buyuk Britaniyaga 8,9 foiz mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, 2004-yil Italiyaga 11,8 foiz, Buyuk Britaniyaga esa eksport hajmi 22,6 foizga yetgan[7]. Mintaqaga xorijiy sarmoyalar jalb qilinishi yildan-yilga ko'payib, 2006-yil mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan sarmoyalar 337830,9 mln. so'm bo'lsa, 2007-yil so'ngida bu ko'rsatgich 389224,5 mln. so'mga oshib 727005,4 mln. so'mga yetgan. 2007-yil kapitalining davlat hisobiga 81812,2 mln. so'm, nodavlat tashkilotlarga tegishli ulushi 645243,2 mln. so'mni tashkil qilgan[8]. Bundan tashqari, 21,7 mln. AQSh dollari xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Shundan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari 5,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yalpi hududiy mahsulotni shakllantirishda qatnashadigan xizmat hajmi 11,4 foizga o'sgan (Respublikada 8,8 foizga o'sgan). Shuningdek, kapital mablag'lar hajmi 19 foizga oshgan (Respublikada 9,1 foizga o'sgan). Hududiy eksport hajmi 13,9 mln. AQSh dollariga yetib, 30,1 foizga oshgan (Respublikada 31,5 foizga ko'paygan)[9].

Respublikada 2007-yilda xorijiy sarmoyalar ishtirokida 700 dan ortiq yangi korxona barpo etildi. Xususiylashtirish va investitsiyalashga doir mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijalariga qaraganda, 2008-yili Buxoro viloyati korxonalariga 256 milliard so'm miqdoridagi xorijiy sarmoyalar jalb qilindi, ularning 67,9 foizini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tashkil etgandi. Bundan tashqari, 2007-2008 yillar mobaynida 28 ta davlat aktivi xususiylashtirilib, 2,1 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiya majburiyatlari mahalliy mablag'lar tomonidan ado etilgandi[10].

2008-yil yanvar-fevral oyi yakunlari bo'yicha 28,2 mlrd. so'mlik pudrat ishlari amalga oshirilib, o'tgan yilga nisbatan 90,2 foizni tashkil qilgan[11]. Tashqi savdo aylanmasi yanvar oyi yakunida 15,3 mln. AQSh dollari bo'lib, 2007-yil bilan solishtiradigan bo'lsak 104,7 foizni, import esa 96,8 foizni tashkil qilib, eksport hajmi 12,8 mln. AQSh dollarini, import –2,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Viloyat korxonalariga dastur bo'yicha yanvar oyi topshirilgan jami: 823,8 ming AQSh dollar bo'lib, amalda 985,8 ming AQSh dollarini tashkil etib, dastur ijrosi 119,7 foizga bajarilgan[12]. Mintaqada o'zaro hamkorlik rivojlanishi natijasida ikki mingga yaqin yangi ish o'rinlari barpo etilgadi.

2003-yil Navoiy viloyatida "Shams-Navoiy" firmasi Amerika Qo'shma Shtatlarini CASYeF kompaniyasi bilan birgalikda To'dako'l suv havzasida baliqchilikni rivojlantirish borasida "Shams-To'dako'l" qo'shma korxonasi tashkil etgandi. Bunda Amerika tomonidan 490 000 Amerika dollari investitsiya sifatida kiritilgan[13]. Mintaqa eksport hajmining 2003-yil 488,3 mln. AQSh dollari (50,9 foiz), 2004-yil hisobida 636,8 mln. AQSh dollari yani 2003-yilga nisbatan 130,4 foizga ortishi tashqi savdoda tub o'zgarishlar bo'lganligini yaqqol dalilidir[14]. Bunda birinchi navbatda qimmatbaho metallar, kimyo sanoati mahsulotlari va plastmassalar, paxta tolasi zargarlik buyumlari eksporti hisobiga erishilgandi. Tashqi savdo aylanmasida 104,2 mln. AQSh dollari miqdorida ijobiy savdoga erishilgan. Bu 2003-yilning shu davridagidan qariyb 58 million AQSh dollari ko'p, demakdir. Shuningdek, mintaqa bo'yicha o'tgan 9 oy davomida mahalliy xomashyodan mahsulotlar ishlab chiqarish 7,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Mahalliyashtirish doirasida qo'shimcha 287 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi. Erkin sotuvdagi aksiyalarni sotishdan sarmoyalar jalb etish rejasi 311,3 mln. so'm belgilangan bo'lib, 9 oy davomida 98,0 mln. so'm sarmoya jalb etildi yoki reja atigi 31,1 foizga bajarilgandi. 2004-yil 9 oyi davomida chet el investorlariga 282,7 mln. so'mlik aksiyalar sotilishi mo'ljallangan bo'lib, 2004-yilning 24-oktyabriga qadar ushbu yo'nalishdan umuman sarmoyalar jalb etilmagan edi. 2004-yil 1-oktyabr holatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning budjet oldidagi boqimanda qarzlari 2,0 mlrd so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 80 foizga o'sgan[15].

Investitsiyalarning jadallashishi natijasida 2004-yil 49-ta, 2005-yil 46-ta korxonalar faoliyat yuritgan[16]. 2007-yilning 1-yanvar holatiga chet el sarmoyasi ishtirokidagi 48 ta qo'shma korxona ro'yxatga olingan bo'lib, shulardan 39 ta ya'ni 81,3 foizi faoliyat ko'rsatib kelgan. Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarning eng ko'pi AQSh, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Germaniya, Vengriya, Turkiya, BAA, Rossiya, Tojikiston, Ozarbayjan, Turkmaniston va boshqa mamlakatlar ishtirokida tashkil qilingan[17]. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida sezilarli yutuqlar ko'zga tashlandi.

Aslida Navoiy viloyatini sanoatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Viloyatda, O'zbekiston Respublikasining eng gigant korxonalari joylashgan. 2005-yilda 2004-yilga nisbatan rangli

metallurgiya sanoatida 102 foiz, oziq-ovqat sanoatida 118,4 foiz, yengil sanoat sohasida 123,7 foiz, yog'ochni qayta ishlash sanoatida 106,3 foiz, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida 106,9 foiz, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 101,9 foiz o'sishga erishilgandi[18].

Navoiy issiqlik elektr stansiyasi mustaqillik yillarida butunlay yangi bosqichga ko'tarildi, mavjud 12 ta energoblok texnik va texnologik jihatdan qayta rekonstruksiya qilinib, modernizatsiyalash ishlari bosqichma-bosqich bajarildi. O'zbekistonning g'arbiy-janubiy. hududlarini elektr energiyasi bilan ta'minlaydigan asosiy manbadir. Elektr stansiyasi kuchlanishi 220 ming voltli elektr uzatish liniyalari bilan Urganch shahridagi taqsimlash qurilmasi orqali Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasiga, Kattaqo'rg'on, Samarqand shaharlaridagi taqsimlash qurilmalari orqali O'rta Osiyo Birlashgan energetika tizimi ("Energiya" birlashgan dispetcherlik markazi)ga ulangan. 2002-yilda 5931,5 mln. kVt-s elektr energiyasi ishlab chiqarildi, iste'molchilarga 3042 ming Gkal issiqlik yetkazib berilgandi[19].

Bu, o'z navbatida, Qizilqumdagi tog'-kon va gaz sanoati korxonalariga, Navoiy "Elektrkimyozavodi", "Qizilqumsement" korxonasiga, Amu-Buxoro, Qarshi magistral kanallaridagi nasos stansiyalariga, Buxoro, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari iste'molchilariga elektr energiyasi beradi. Bundan tashqari, Navoiy shahri aholisi va viloyatdagi sanoat korxonalariga 27 milliard 547 million 173 ming so'mlik issiqlik, 129 milliard 409 million 477 ming so'mlik elektr energiya yetkazib berildi. Natijada 2008-yilning o'n oyida 6 milliard 332 million 64 ming kilovat-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, bu borada o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 118,8 foiz o'sishga erishildi[20]. 2006-2008 yillarda viloyatlar tashqi iqtisodiy hamkorlik asosida Rossiya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Eron, Xitoy, Singapur, Latviya, BAA, AQSh, Turkiya va shunga o'xshagan uzoq va yaqin xorijiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarni yildan-yilga yaxshilab bordi[21]. Xorijiy investitsiyalarning salmog'i ko'payishi natijasida viloyatlar iqtisodiyoti yuksalib ishsiz aholi ish bilan ta'minlanishi va turmush sharoitlari yaxshilanshiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrdagi "Investitsiya faoliyati to'g'risida"[22]gi yangi tahrirdagi Qonunining qabul qilinishi qolaversa, bunga qadar investitsiya to'g'risida, 2008-yil 24-iyul O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-927-son "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[23] hamda 2009-yil 28-oktyabrda qobul qilingan "O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi investitsiya dasturi to'g'risida"[24]gi qarorlariga muvofiq.

Mamlakat investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan ayni shunday chora-tadbirlar natijasida respublikaga kiritilayotgan investitsiyalar sezilarli darajada ortdi. 2007-2008 yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganining o'zi ham buni tasdiqlab turibdi. 2008-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi. Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish –8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi –10,2 foiz, savdo sohasi –7,2 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi. Umuman, 2009-yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy va ichki investitsiyalarni hisobga olganda, kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi mamlakat yalpi ichki mahsulotining kamida 25 foizini tashkil etgandi[25].

XULOSA

Xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning hududlarida yaratilgan investitsion jozibadorlik, qulay investitsion muhit va hududlarning nisbiy afzalliklari muhim o'rin tutadi. Aynan yuqoridagi omillarga xorijiy investorlar tomonidan alohida e'tibor berildi. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli uslublardan foydalanildi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilaydigan omil va indikatorlarni tanlab olishda namoyon bo'ldi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Ўзбекистон Республикаси давлат статистик қўмитаси. Самарқанд вилояти статистика бошқармаси. Статистик тўплам 1997-2006 йиллар. Самарқанд-2007. –Б. 25.
2. Самарқанд вилоят ҳокимлиги жорий архиви. 1552-фонд, 1-рўйхат, 1448-йиғма жилд, 194-варақ.
3. Самарқанд вилояти статистика бошқармаси. Статистик тўплам 1997-2006-йиллар. Самарқанд. 2007. –Б. 169.
4. Самарқанд вилоят иқтисодиёт бошқармасининг жорий архиви. 2006-йил ҳисоботи. – Б. 16.
5. Бухоро вилояти статистика бошқармаси. Бухоро вилояти статистик ахборотномаси 2003-2004. Бухоро. 2005. –Б. 64.
6. Бухоро вилояти статистика бошқармаси. Бухоро вилояти статистик ахборотномаси 2003-2004. Бухоро. 2005. –Б. 80.
7. Бухоро вилояти статистика бошқармаси. Бухоро вилояти статистик ахборотномаси 2003-2004. Бухоро. 2005. –Б. 79.
8. Бухоро вилояти статистика бошқармаси. Бухоро вилоятининг статистика ахборотномаси. 2006-2007 Статистик тўплам. Бухоро-2008. –150 б.
9. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 671-йиғма жилд, 33-варақ.
10. Хусусий мулкчилик ва ҳудудлар иқтисодиётини инвестициялаш самарадорлигини ошириш-устувор вазифа. // Халқ сўзи. 2009-йил 3-феврал, –Б. 1-2
11. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 745-йиғма жилд, 59-варақ.
12. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 745-йиғма жилд, 18-варақ.
13. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 572-yig'ma jild, 20-varaq.
14. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 667-yig'ma jild, 2-varaq.
15. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 667-yig'ma jild, 3-varaq.
16. Navoiy viloyati davlat statistika qo'mitasining joriy arxivi, 2003-2009-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari hisoboti. 3-varaq.
17. Навоий вилоят статистика бошқармаси. Навоий вилоятининг 2006 йил январ-декабр ойларида ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Навоий-2007. –88 б.
18. Жуманиёзов Р. Барханлар бағридаги бўстон. // Халқ сўзи. 2006-йил 28-июн, –Б. 2.
19. Ушбу маълумот Ўзбекистон миллий энциклопедияси (2000-2005) маълумотларидан олинган.
20. Акрамов Б. Замонавий технологиялар самараси. // Халқ сўзи. 2008-йил 12-ноябр, –Б.1.
21. Бухоро вилояти статистика бошқармаси. Бухоро вилоятининг статистика ахборотномаси. 2006-2007 Статистик тўплам. Бухоро-2008. –Б. 93-94.; Самарқанд вилояти статистика бошқармаси. Статистик тўплам 1997-2006-йиллар. Самарқанд-2007. –Б. 201-209.; Навоий вилоят статистика бошқармаси. Навоий вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари. 2009 йил январ-декабр ойлари. Навоий-2010. –65 б.
22. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, –Тошкент. 2014 й., 50-сон, 587-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.07.2018 й., 03/18/488/1579-сон.
23. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 29-30-сон, 282-модда; 2009 й., 42-сон, 449-модда; 2010 й., 1-2-сон, 2-модда.
24. Бекмуродов А.Ш., Карриева Я.К., Нематов И.У., Набиев Д.Х., Каттаев Н.Т. Хорижий инвестициялар. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. –Б.52.
25. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2009. –30 б.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000